

**ADABIY TARJIMADA STILISTIK YONDASHUV:
TARJIMON IJODI VA MATN RUHI**

Zaripboyeva Dinora Ilhombek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti,

1-kurs talabasi

Telefon: 770142363

Zaripbayevadinora1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy tarjimada stilistik yondashuvning ahamiyati, tarjimonning ijodiy yondashuvi va asar ruhining saqlanishi muhimligi tahlil qilinadi. Matn stilistikasi, muallif uslubi va madaniy konnotatsiyalarni tarjimada ifodalash masalalari nazariy va amaliy manbalar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, tarjima jarayonida tarjimonning ijodkorlik mahorati va uning qaday muhim ekani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Adabiy tarjima, stilistika, matn ruhi, tarjimon ijodi, muallif uslubi, madaniy konnotatsiya, adekvatlik.

Abstract: This article analyzes the importance of stylistic approach in literary translation, the translator's creative approach and the importance of preserving the spirit of the work. The issues of text stylistics, author's style and the expression of cultural connotations in translation are covered based on theoretical and practical sources. The translator's creative skills in the translation process and how important they are are also analyzed.

Keywords: Literary translation, stylistics, spirit of the text, translator's work, author's style, cultural connotation, adequacy.

Аннотация: В статье анализируется важность стилистического подхода в художественном переводе, творческий подход переводчика и важность сохранения духа произведения. На основе теоретических и практических источников рассматриваются вопросы стилистики текста, авторского стиля и выражения культурных коннотаций в переводе. Анализируются творческие навыки переводчика в процессе перевода и насколько они важны.

Ключевые слова: Художественный перевод, стилистика, дух текста, работа переводчика, авторский стиль, культурная коннотация, адекватность.

Kirish

Adabiy tarjima – bu shunchaki til o‘zgartirish yoki tarjima qilish emas, balki madaniyatlararo muloqot, badiiy tafakkur va matn ruhini boshqa til vositalari orqali ifodalash san’atidir. Har qanday adabiy asarda muallif uslubi, stilistik vositalar,

konnotatsiyalar va madaniy qatlamlar mavjud bo‘lib, ularni boshqa tilga ko‘chirish tarjimondan nafaqat til, balki badiiy sezgi, uslubiy anglash va ijodkorlikni talab etadi.

Adabiy tarjima boshqa sohaviy tarjimalardan, masalan, texnik yoki huquqiy tarjimadan tubdan farq qiladi. Bu farq, asosan, matnning estetikasiga, badiiy yondashuviga va stilistik shakllanishiga borib taqaladi.

Peter Newmark ta’kidlaganidek, "Adabiy tarjimada muhim narsa – bu matnning musiqasi, ritmi, obrazlari va konnotatsiyalari." Shu sababli tarjimon o‘z tarjimasida bu jihatlarni yo‘qotmasdan, asarning badiiy qiymatini saqlab qolishi kerak (Newmark, 1988, p. 163).

Har bir san’at asari yaratgan yozuvchi o‘ziga xos stilistik uslubga ega bo‘ladi. Bu uslubga muayyan sintaktik tuzilma, metaforalar, ironiyalar, leksik tanlov va ritm kiradi. Tarjimondan esa bu elementlarni boshqa tilga o’tkazish jarayonida ijodkorlik va jiddiy yondashuv talab etiladi. Susan Bassnettning fikricha, tarjimon “matn muallifining hamfikri bo‘lishi, ammo yangi til muhitida uni qayta yaratuvchi ijodkor sifatida ish tutishi” lozim (Bassnett, 2014, p. 85).

Misol uchun, Shekspir asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan tarjimonlar (Xurshid Davron, Muhammad Yusuf) o‘z tarjimalarida nafaqat mazmun, balki uslubiy xususiyatlarga ham e’tibor bergen. Asarni xalq tushunadigan tilda, ma’daniy tafovutlarni saqlagan holda tarjima qilgan. Bu esa matn ruhining boshqa tilga o‘tishida muhim rol o‘ynaydi.

Madaniy konnotatsiyalar va milliy ruh

Adabiy matnlar muayyan bir madaniyat mahsuli bo‘lib, ularda milliy urf-odat, tarixiy kontekst va madaniy qadriyatlar mujassam bo‘ladi. Tarjimon bu unsurlarni boshqa madaniyatga va boshqa xalq vakillriga mos tarzda yetkazish uchun ba’zida adaptatsiya (moslashtirish) usulidan foydalanadi. Lawrence Venuti “madaniy ko‘rinmaslik” (translator’s invisibility) masalasini ko‘tarib, tarjimonning juda sodiq yoki juda erkin bo‘lishi o‘quvchida matnni qanday qabul qilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini aytadi (Venuti, 1995, p. 21–23).

Misol: Amerikada yozilgan romanlardagi "Thanksgiving" bayrami yoki "baseball"ga oid iboralarni o‘zbek tilida aynan saqlash ham, ularni o‘quvchiga tanishroq kontekstga moslashtirish ham stilistik yondashuvni talab qiladi.

Adabiy tarjimada tarjimon ma’lum darajada erkinlikka ega bo‘ladi. Biroq bu erkinlik mutlaq bo‘lishi mumkin emas, chunki tarjimon o‘zining ijodiy yondashuvi orqali asarning asosiy g‘oyasi, muallifning ichki ovozi va stilistik xususiyatlariga putur yetkazmasligi lozim. Tarjimon matn mazmunini chuqur anglab, uni boshqa tilga muvofiq tarzda bayon etishi kerak.

Antoine Berman (1992 p.286) ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, "etnotsentrik deformatsiya" muammosini ilgari suradi. Unga ko‘ra, tarjimon asar matnni o‘z madaniy va estetik me’yorlariga haddan tashqari moslashtirib yuborishi, ya’ni uni ortiqcha o‘zgartirishi orqali matnning asl mohiyatini buzib qo‘yishi

mumkin. Bunday yondashuv adabiy asarning original ruhini, muallifning stilistik niyatlarini va madaniy ko‘lamini buzib qo‘yishi yoki yo‘qqa chiqarishi mumkin. Shuning uchun tarjimon o‘z ijodkorligini asarga sodiqlik bilan uyg‘unlashtirgan holda ishlashi, ya’ni tarjima jarayonida ijodiy moslashuv va sodiqlik o‘rtasida nozik muvozanatni saqlashi zarur. Shu bois, tarjimon asarning semantik va stilistik qirralarini o‘zgartirmasdan, lekin uni o‘quvchi uchun tushunarli tarzda yetkazishi kerak. Bu nozik muvozanat tarjimonning nafaqat til bilimini, balki badiiy didini ham sinovdan o‘tkazadi.

Roman tarjimasi: Ingliz tilidagi "The Great Gatsby" romanining ruscha tarjimasida F. Scott Fitzgeraldning uslubi saqlanmagan holatlar mavjud. Garchi mazmun asosan to‘g‘ri tarjima qilingan bo‘lsa-da, ritm, obrazlar va ironik ohang yo‘qolgan. Bunga sabab tarjimonning noto‘g‘ri yondashishi bo‘lgan.

Stilistik sodiqlik va tarjima strategiyalari: Tarjimon stilistik jihatdan sodiqlikni saqlash uchun quyidagi strategiyalardan foydalanadi:

- **Transpozitsiya** – grammatik shakllarni moslashtirish
- **Modulyatsiya** – ma’noni o‘zgartirmasdan ifoda shaklini o‘zgartirish
- **Ekvivalensiya** – umumiyl effektni saqlagan holda erkin tarjima
- **Adaptatsiya** – madaniy unsurlarni moslashtirish

Bu strategiyalar Nida & Taber (1969 p.200) tomonidan ishlab chiqilgan tarjima ekvivalentlik modeli doirasida keng tahlil qilingan.

Adabiy tarjimada stilistik yondashuv muallif matnining ruhini saqlashda muhim o‘rin tutadi. Tarjimon matnning grammatik va semantik jihatlaridangina emas, balki asarning badiiy, madaniy va stilistik qatlamlaridan ham xabardor bo‘lishi lozim. Tarjimon – bu til o‘girish bilan cheklanmaydigan, balki madaniyatlararo ko‘prik o‘rnatadigan ijodkordir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Newmark, P. (1988 p.163). *A Textbook of Translation*. Prentice Hall.
2. Bassnett, S. (2014 p.85). *Translation Studies*. Routledge.
3. Venuti, L. (1995 p.21-23). *The Translator’s Invisibility: A History of Translation*. Routledge.
4. Berman, A. (1992 p.286). *The Experience of the Foreign: Culture and Translation in Romantic Germany*. SUNY Press.
5. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969 p.200). *The Theory and Practice of Translation*. Brill Archive.